



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

O‘ZBEKISTON TO‘QIMACHILIK SANOATIDA PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

Rizayeva Sevinchoy Baxodir qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistri

Annotatsiya

Ushbu tezisda O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida paxta-to‘qimachilik klasterlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda to‘qimachilik sanoati mamlakat iqtisodiyotining eksportbop, mehnat talab va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatiga ega strategik tarmog‘i sifatida baholanadi. Paxta-to‘qimachilik klasterlari esa xomashyo yetishtirish, qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish, logistika, sertifikatlash, marketing va eksport jarayonlarini yagona qiymat zanjirida birlashtiruvchi institutsional mexanizm sifatida ko‘rib chiqiladi. Tezisda “Indorama Kokand Textile” va “Buxoro Agrocluster” klasterlari faoliyati misolida ishlab chiqarish hajmi, eksport salohiyati, qo‘shilgan qiymat ulushi, rentabellik, bandlik va resurs samaradorligi ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, klasterlarda ishlab chiqarish va resurs samaradorligi oshib borayotgan bo‘lsa-da, eksport hajmining tashqi bozor kon’yunkturasiga bog‘liqligi, xalqaro sertifikatlash talablari, logistika xarajatlari va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushining yetarli emasligi dolzarb muammo sifatida saqlanib qolmoqda.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik sanoati, paxta-to‘qimachilik klasteri, klaster samaradorligi, eksport salohiyati, qo‘shilgan qiymat, resurs samaradorligi, raqobatbardoshlik, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Kirish

Bugungi kunda to‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, uning rivojlanishi sanoatlashuv, hududiy bandlik, eksport tushumlari va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish bilan bevosita bog‘liqdir. Mazkur tarmoqning iqtisodiy ahamiyati shundaki, u paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar taklif etish imkonini beradi.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida so‘nggi yillarda xomashyo eksportiga asoslangan an‘anaviy yondashuvdan tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksportga yo‘naltirilgan industrial modelga o‘tish jarayoni kuchaymoqda. Ushbu jarayonda paxta-to‘qimachilik klasterlari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki klasterlar paxta yetishtirish, qayta ishlash, ip-kalava, gazlama, tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish, logistika va eksportni yagona boshqaruv tizimida birlashtiradi.

To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati tarmoqda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, eksportni rag‘batlantirish, xalqaro standartlarni joriy etish, milliy brendni shakllantirish va hududiy sanoatlashuvni chuqurlashtirishga qaratilgan. Xususan, eksport oldi moliyalashtirish, “ishonchli eksportchi” dasturi, xalqaro sorsing kompaniyalarini jalb etish, “Better Work”, BCI va Organic kabi standartlarni joriy qilish tashabbuslari to‘qimachilik sanoatining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tarmoqda hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar ham mavjud. Eksport bozorlariga yuqori bog‘liqlik, logistika xarajatlari, sertifikatlash talablari, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushining yetarli emasligi, brend tanilganligining pastligi va raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish darajasining notekisligi klasterlar samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, indeksli baholash, dinamik qatorlar tahlili va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Klasterlar samaradorligini baholashda quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar tanlandi: ishlab chiqarish hajmi indeksi, eksport hajmi indeksi, qo‘shilgan qiymat ulushi, rentabellik indeksi, bandlik indeksi va resurs samaradorligi indeksi.

Ushbu ko‘rsatkichlar klasterlarning faqat ishlab chiqarish natijalarini emas, balki ularning iqtisodiy barqarorligi, eksportga yo‘naltirilganligi, hududiy bandlikka ta‘sir va resurslardan foydalanish samaradorligini ham aniqlash imkonini beradi. Tahlilda “Indorama Kokand Textile” va “Buxoro Agrocluster” klasterlari faoliyatining 2021–2025-yillardagi asosiy indeksleri asos qilib olindi.

Tahlil va natijalar. To‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda bozor omillarining ta‘sirini kompleks baholash muhim ahamiyatga ega. Xususan, global xomashyo bozorlarida narxlarning o‘zgarishi, eksport talabining beqarorligi, importga qaramlik darajasi, ichki ishlab chiqarish va iste‘mol muvozanati, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati hamda xalqaro standartlarga moslashish darajasi tarmoq rivojiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli to‘qimachilik sanoatini barqaror rivojlantirishda ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika, marketing va eksport jarayonlarini yagona tizimda boshqarish zarurati kuchaymoqda.

O‘zbekiston sharoitida ushbu vazifani amalga oshirishda paxta-to‘qimachilik klasterlari muhim tashkiliy-iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Klaster tizimi paxta xomashyosini yetishtirishdan boshlab uni qayta ishlash, ip-kalava, gazlama, trikotaj mato, tayyor kiyim-kechak va boshqa yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hamda eksportgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni yagona ishlab chiqarish zanjirida birlashtiradi. Bu esa tarmoqda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish,



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

tayyor mahsulot ulushini oshirish va hududlarda yangi ish o‘rinlari yaratish imkonini beradi.

Paxta-to‘qimachilik klasterlarining shakllanishi, avvalo, tarmoqda bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, xomashyo yetishtirish va qayta ishlash o‘rtasidagi uzilishni bartaraf etish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini yagona boshqaruv asosida muvofiqlashtirish zaruratidan kelib chiqqan. Klasterlar fermer xo‘jaliklari, qayta ishlash korxonalarini, banklar, logistika subyektlari, dizayn va marketing xizmatlari hamda eksport operatorlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni tizimli yo‘lga qo‘yadi. Natijada qiymat zanjirining barcha bo‘g‘inlari o‘zaro uyg‘unlashadi va tarmoqning umumiy samaradorligi ortadi.

Klaster tizimining eng muhim afzalligi shundaki, u paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash darajasini oshiradi. Xomashyoni eksport qilishda qo‘shilgan qiymatning katta qismi tashqi bozorlarda shakllanadi. Aksincha, paxta-to‘qimachilik klasterlari paxtadan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonini mamlakat ichida tashkil etish orqali qo‘shilgan qiymatni milliy iqtisodiyot doirasida yaratishga imkon beradi. Bu esa eksport tushumlarini ko‘paytirish, soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish, bandlikni oshirish va hududiy sanoatlashuvni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Shu jihatdan, paxta-to‘qimachilik klasterlari O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish, global qiymat zanjirlariga integratsiyalashish va eksport salohiyatini kengaytirishda strategik ahamiyatga ega institutsional mexanizm hisoblanadi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

“Indorama Kokand Textile” va “Buxoro Agrocluster” klasterlari faoliyatining asosiy indekslari (2021–2025-yillar)

Ko'rsatkichlar	Indorama Kokand Textile	Buxoro Agrocluster	Indorama Kokand Textile	Buxoro Agrocluster	Indorama Kokand Textile	Buxoro Agrocluster	Indorama Kokand Textile	Buxoro Agrocluster	Indorama Kokand Textile	Buxoro Agrocluster
	2021		2022		2023		2024		2025	
Ishlab chiqarish hajmi indeksi	100	100	130	125	148	140	140	135	145	138
Eksport hajmi indeksi	100	100	135	130	150	145	112	108	102	97
Qo'shilgan qiymat ulushi, %	42	38	48	44	55	50	60	54	65	58
Rentabellik indeksi	100	100	120	115	135	128	118	112	122	118
Bandlik indeksi	100	100	110	108	118	115	123	120	128	124
Resurs samaradorligi indeksi	100	100	116	112	128	124	132	128	138	134

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston to'qimachilik sanoati so'nggi yillarda xomashyoga yo'naltirilgan modeldan yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga bosqichma-bosqich o'tmoqda. Bu jarayonda klaster tizimi, investitsiyalar va innovatsion texnologiyalar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bunda, “Indorama Kokand Textile” va “Buxoro Agrocluster” faoliyatida ishlab chiqarish hajmi, bandlik va resurs samaradorligi barqaror o'sib borayotgani, biroq eksport hajmi tashqi bozor kon'yunkturasiga bog'liq ravishda ayrim yillarda pasayish tendensiyasini namoyon etayotgani qayd etilgan.

“Indorama Kokand Textile” va “Buxoro Agrocluster” klasterlari faoliyatining 2021–2025-yillar bo'yicha tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikki klasterda ishlab chiqarish hajmi, bandlik, qo'shilgan qiymat ulushi va resurs samaradorligi bo'yicha ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Bu holat paxta-to'qimachilik klasterlari xomashyoni chuqur qayta ishlash, ishlab chiqarish quvvatlaridan



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

samarali foydalanish va hududiy bandlikni oshirishda muhim rol o‘ynayotganini ko‘rsatadi.

Qiyosiy jihatdan qaralganda, “Indorama Kokand Textile” klasterida ishlab chiqarish hajmi indeksi 2021-yildagi 100 ko‘rsatkichdan 2025-yilda 145 gacha oshgan bo‘lsa, “Buxoro Agrocluster”da bu ko‘rsatkich 138 ni tashkil etgan. Bu “Indorama Kokand Textile”da ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish va modernizatsiya jarayonlari nisbatan yuqoriroq sur‘atda kechganini anglatadi. Shuningdek, “Indorama Kokand Textile”da qo‘shilgan qiymat ulushi 42 foizdan 65 foizgacha oshgan bo‘lsa, “Buxoro Agrocluster”da ushbu ko‘rsatkich 38 foizdan 58 foizgacha ko‘tarilgan. Bu esa birinchi klasterda tayyor mahsulot ishlab chiqarish va chuqur qayta ishlash darajasi nisbatan yuqoriroq shakllanganini ko‘rsatadi.

Resurs samaradorligi bo‘yicha ham har ikki klasterda ijobiy natijalar qayd etilgan. “Indorama Kokand Textile”da resurs samaradorligi indeksi 2025-yilda 138 ga yetgan bo‘lsa, “Buxoro Agrocluster”da bu ko‘rsatkich 134 ni tashkil etgan. Ushbu holat har ikki klasterda xomashyo, mehnat resurslari, energiya va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi oshib borayotganini bildiradi. Biroq “Indorama Kokand Textile”da mazkur ko‘rsatkich biroz yuqoriroq bo‘lib, bu klasterda texnologik yangilanish va boshqaruv samaradorligi nisbatan kuchliroq ekanini ko‘rsatadi.

Bandlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham o‘shish kuzatilgan. “Indorama Kokand Textile”da bandlik indeksi 2025-yilda 128 ga, “Buxoro Agrocluster”da esa 124 ga yetgan. Bu ikki klaster ham hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish va mehnat resurslarini ishlab chiqarish jarayoniga jalb etishda muhim ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, “Indorama Kokand Textile”da bandlik o‘shish sur‘ati nisbatan yuqoriroq bo‘lib, bu klaster faoliyatining mehnat bozori bilan integratsiyasi kuchliroq ekanidan dalolat beradi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Eksport hajmi indeksi bo'yicha esa har ikki klasterda o'ziga xos muammo kuzatiladi. "Indorama Kokand Textile"da eksport hajmi indeksi 2023-yilda 150 ga yetgan bo'lsa, 2025-yilda 102 gacha pasaygan. "Buxoro Agrocluster"da esa eksport hajmi indeksi 2023-yilda 145 ni tashkil etgan holda, 2025-yilda 97 gacha tushgan. Bu holat ikkala klasterning ham tashqi bozor kon'yunkturasiga, xalqaro talab o'zgarishiga, logistika xarajatlariga va sertifikatlash talablariga sezilarli darajada bog'liq ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, "Buxoro Agrocluster"da eksport indeksining 100 dan pastga tushishi eksport strategiyasini qayta ko'rib chiqish, yangi bozorlarni izlash va tayyor mahsulotlar ulushini oshirish zarurligini bildiradi.

Umuman olganda, qiyosiy tahlil natijalari "Indorama Kokand Textile" klasterining ishlab chiqarish hajmi, qo'shilgan qiymat ulushi, rentabellik, bandlik va resurs samaradorligi bo'yicha "Buxoro Agrocluster"ga nisbatan biroz yuqoriroq natijalarga ega ekanini ko'rsatadi. Biroq har ikki klasterda ham eksport hajmining pasayish tendensiyasi mavjud bo'lib, bu paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligini oshirishda eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish, xalqaro sertifikatlash tizimini kuchaytirish, logistika xarajatlarini kamaytirish va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ulushini oshirish zarurligini asoslaydi

Fikrimizcha, paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligini oshirishda uchta asosiy yo'nalish muhim ahamiyatga ega.

- 1) Ishlab chiqarish-texnologik yo'nalish bo'lib, u zamonaviy uskunalar, avtomatlashtirish, energiya va suv tejoychi texnologiyalarni joriy etishni o'z ichiga oladi.
- 2) Eksport-marketing yo'nalishi bo'lib, bunda xalqaro sertifikatlash, milliy brend, elektron savdo, logistika va yangi bozorlarni egallash masalalari muhim o'rin tutadi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

3) Institutsional-moliyaviy yo‘nalish bo‘lib, u imtiyozli kreditlar, eksport oldi moliyalashtirish, subsidiyalar, kafolat fondlari va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qamrab oladi.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari samaradorligini oshirish klaster faoliyatini kompleks baholash, ishlab chiqarish zanjirini chuqurlashtirish, eksport salohiyatini kengaytirish va malakali kadrlar tayyorlash bilan bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, klasterlar faoliyatini baholashning yagona raqamli monitoring tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tizimda ishlab chiqarish hajmi, eksport shartnomalari, resurs sarfi, bandlik darajasi, sertifikatlash holati hamda investitsiya loyihalari bo‘yicha ma’lumotlar muntazam shakllantirilishi lozim. Bunday yondashuv davlat tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlash choralarini aniq natijadorlik ko‘rsatkichlari bilan bog‘lash imkonini beradi.

Klasterlar qoshida umumiy xizmat markazlarini tashkil etish ham tarmoq samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu markazlar sertifikatlash, laboratoriya tekshiruvi, dizayn, marketing, eksport konsaltingi va logistika xizmatlarini ko‘rsatishga ixtisoslashishi zarur. Ayniqsa, kichik va o‘rta korxonalar uchun bunday xizmatlar xalqaro bozorlarga chiqish xarajatlarini kamaytiradi hamda ularning eksport imkoniyatlarini kengaytiradi.

Klasterlar faoliyatida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish alohida ahamiyatga ega. Paxta xomashyosi yoki ip-kalava eksporti bilan cheklanib qolmasdan, tayyor kiyim-kechak, uy tekstili, texnik tekstil va milliy brend mahsulotlarini eksport qilishga o‘tish tarmoqning xalqaro raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Bu esa qo‘shilgan qiymatning mamlakat ichida shakllanishiga, eksport tushumlarining ortishiga va sanoatning sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qiladi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Eksport geografiyasini kengaytirish ham paxta-to'qimachilik klasterlari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaqin Sharq, Xitoy, Turkiya va Janubi-Sharqiy Osiyo bozorlariga chiqish uchun har bir yirik klaster bo'yicha alohida eksport xaritalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda sertifikatlash, logistika, marketing va xalqaro brendlar bilan hamkorlik masalalari o'zaro bog'liq holda qamrab olinishi lozim.

Shuningdek, klasterlar va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi amaliy hamkorlikni kuchaytirish klasterlar samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Texnologlar, dizaynerlar, eksport menejerlari, logistika mutaxassisleri va raqamli ishlab chiqarish bo'yicha kadrlarni tayyorlash tarmoqning innovatsion rivojlanishi va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvi uchun zarur asos yaratadi. Umuman olganda, paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligini oshirish ishlab chiqarish, eksport, innovatsiya, kadrlar tayyorlash va institutsional boshqaruv mexanizmlarini o'zaro uyg'un holda rivojlantirishni talab etadi.

Xulosa

Paxta-to'qimachilik klasterlari O'zbekiston to'qimachilik sanoatini xomashyo eksportiga asoslangan an'anaviy modeldan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilishga yo'naltirilgan zamonaviy industrial modelga o'tkazuvchi muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. Klasterlar paxta yetishtirish, qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish, logistika, sertifikatlash, marketing va eksport jarayonlarini yagona qiymat zanjirida birlashtirish orqali tarmoqning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

“Indorama Kokand Textile” va “Buxoro Agrocluster” misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, klasterlarda ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi, qo'shilgan qiymat ulushi va resurslardan foydalanish samaradorligi bo'yicha



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

ijobiy o‘sish tendensiyalari kuzatilmoqda. Bu esa paxta-to‘qimachilik klasterlari hududiy sanoatlashuv, yangi ish o‘rinlari yaratish va xomashyoni chuqur qayta ishlashda muhim rol o‘ynayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, eksport hajmining ayrim yillarda pasayishi tarmoqning tashqi bozor kon’yunkturasi, logistika xarajatlari, xalqaro sertifikatlash talablari va eksport bozorlarining cheklanganligi bilan bog‘liq muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

Shu sababli paxta-to‘qimachilik klasterlari samaradorligini oshirishda ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini faqat miqdoriy o‘sish orqali emas, balki sifat jihatidan yangilanish, eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish, xalqaro sertifikatlash tizimini kengaytirish, raqamli monitoring platformalarini joriy etish, umumiy xizmat markazlarini tashkil qilish va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish orqali baholash maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, klasterlar qoshida dizayn, marketing, laboratoriya, logistika va eksport konsaltingi xizmatlarini ko‘rsatadigan markazlarning tashkil etilishi kichik va o‘rta korxonalar uchun xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kelgusida klasterlar faoliyatini yanada takomillashtirish uchun davlat qo‘llab-quvvatlash choralarini aniq natijadorlik ko‘rsatkichlariga bog‘lash, eksport xaritalarini ishlab chiqish, xalqaro brendlar bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda oliy ta‘lim muassasalari bilan amaliy integratsiyani rivojlantirish zarur. Texnologlar, dizaynerlar, eksport menejerlari, logistika mutaxassisleri va raqamli ishlab chiqarish bo‘yicha malakali kadrlarni tayyorlash klasterlarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta‘minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, paxta-to‘qimachilik klasterlari samaradorligini oshirish O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvi, eksport salohiyatini kengaytirishi, hududiy sanoatlashuvni chuqurlashtirishi va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu jihatdan, klasterlar faoliyatini



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

tashkiliy, iqtisodiy, innovatsion, eksport-marketing va kadrlar tayyorlash mexanizmlari bilan uyg'un holda rivojlantirish tarmoq raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishi sifatida qaralishi lozim.